



## UBAYDIY “KULLIYOT”I TARKIBIDAGI FORSIY QIT’ALAR MATNIY-QIYOSIY TADQIQI

**Muallif:** Rahmatjon To‘raqulov<sup>1</sup>

**Affiliyatsiya:** Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi tayanch-doktoranti<sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.20205961>

### ANNOTATSIYA

Ubaydullaxon XV asr o‘zbek davlatchiligi va ma’naviy hayotida alohida o‘ringa ega bo‘lgan shayboniyzoda hukmdordir. U o‘zbek xalqi milliy merosiga ma’nan katta hissa qo‘shdi. Mazkur asarlar ichida Ubaydullaxonning forsiy devoni ushbu kunga qadar keng ilmiy tadqiq etilmagay tadqiqotchilar nazaridan chetda qolmoqda. Devondagi unga tegishli forsha qit’alar sulton hayotida ro‘y bergan voqealarga uning munosabati va badiiy tafakkuri haqida xabardor qiladi. Mazkur maqolada Ubaydullaxonning forsiy qit’alarining matniy tadqiqi va g‘oyaviy-badiiy ko‘lami haqida mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Ubaydullaxon, devon, manba, matn, qit‘al, ruboiy, jumla duoiyya, tadqiqot.

Shayboniyxon asos solgan Buxoro xonligining Shayboniyxondan keyin ko‘zga ko‘ringan vakili Ubaydullaxondir. Ubaydullaxon amakisi Shayboniyxon singari ham qalam ham shamshir sohibi edi. Undan bizgacha bir nechta qo‘lyozma asarlar yetib kelgan bo‘lib, ular ichida 991/1583-yilda Mir Husayn al-Husayniy tomonidan ko‘chirilgan katta majmuasi O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida 8931 raqami ostida “Kulliyot” nomi bilan saqlanadi.[3;5]. Majmua charm muqovali, Samarqand qog‘ozida, 18,5x 23 sm formatda, nastaliqning Buxoro xatida ko‘chirilgan ushbu kulliyotda Ubaydullaxonning fors tilidagi devoni ham o‘rin olgan. Devon g‘azaliyot, muqattaot va ruboiyyot qismlaridan iborat. G‘azaliyot qismidan so‘ng manbaning muqattaot qismi boshlanadi. Ruboiyyot qismi “رباعيات من مقالاته نور مرقدہ” “ruboiyyot min maqolatihi navvara marqodahu” degan qizil rangdagi jumla duoiyalik izohdan keyin boshlanadi. Kulliyot tarkibida Ubaydullaxon qalamiga mansub yettita qit’a joylashtirilgan. Qit’alar Ubaydullaxon shaxsiyati, dunyoqarashi qanday bo‘lganligi haqida xabardor qiladi. Qit’alarning uchtasi siyosiy mazmunda, to‘rttasi tarbiyaviy-axloqiy mavzuda bo‘lib, siyosiy mazmundagi qit’alar Mashhad va Hirot shahrining Ubaydullaxon tomonidan egallanishi, Bobur Mirzoning Ubaydullaxondan yengilishi xususida. Muqattaotning birinchi qit’asi Ubaydullaxonning Mashhad fathiga aloqador hasbi hol mavzudagi qit’adir:

شهر مشهد زسیل قهر خدا  
مثل حوض پرآب خواهد شد  
آخر این قلعه زیروزیر  
همچو خیبر خراب خواهد شد

Mazmuni:

Mashhad shahri Xudoning qahridan,  
suv to'la havzdek bo'lajak.  
Oxir bu qal'a ostin-ustin bo'lib,  
Xaybar kabi xarob bo'lajak. [5:77]

Ubaydullaxon 1512-yildan keyin shayboniylarning qo'shni hududlarga uyushtirgan yurushlariga boshchilik qildi. Safaviylarga qarshi faol siyosat yuritib, Xurosonga yetti marta yurish uyushtirdi. Natijada 1525-yilda Marv, 1529-yilda Hirot egallandi. Abu Saidxon vafotidan so'ng, u Movarounnahrdagi barcha Shayboniylarning boshlig'iga aylanib, amalda xon etib saylandi.[2: 17]. Ubaydullaxon dastlab 1529-yilda amakisi Ko'chkinchixon bilan birga Mashhad shahrini egallaydi. Ammo Shoh Tahmospning 70 minglik qo'shini va asosan shia aholining qarshiligiga duch kelib, chekinishga majbur bo'ladi. Usmoniylar va safaviylar urushlaridan foydalangan Ubaydullaxon ikkinchi bor 1536-yilda Mashhadga yurish qiladi. Mashhad qamali boshlangach, Hirot hokimi So'fyon Xalifa Ubaydullaxonga qarshi kurashish va o'zbeklarning Xurosonga yurushlarini to'xtatish uchun 3 ming qizilbosh askari bilan Mashhadga keladi [4:6]. Mashhad yaqinida bo'lgan jangda Ubaydullaxon g'alaba qozonadi va So'fyon Xalifa asir olinib, qatl etiladi. Ubaydullaxon Mashhadni egallashda ko'p qiyinchiliklarga duch kelgani bois yuqoridagi qit'ada ushbu shaharning fathini islom tarixida nomdor bo'lgan Xaybar urushiga muqoyasa etmoqda. Xaybar jangida Payg'ambar alayhissalom boshliq islom lashkari va fitnachilar o'rtasida katta urush bo'lib, oxir-oqibat musulmonlarning g'alabasi bilan tugagan edi. Ubaydullaxonning Hirotni batamom egallashi ham xuddi Mashhad kabi mashaqqatlarga boy bo'ldi. 60 kunlik qamaldan so'ng qizilboshlar lashkarini yenggan sulton quyidagi qit'asida uni batafsil bayon qiladi:

بحمد الله که از شهر هری حق  
روافض را برآورد و عدم کرد  
هری را فتح کرد و در دل ما  
بهجتهای نصرت رفع غم کرد  
خود هم بهر تاریخش ز شادی  
چنین گفت و بلوح دل رقم کرد  
که این مصراع ثانی گشت تاریخ  
عبیدی و بلاد حق کرم کرد

Mazmuni:

Bihamdillah, Hiri(Hirot) shahridan Xudo,  
Rofiziylarni chiqarib yo'q qildi.  
Hiriyni fath aylab, bizning dilimizda,  
Nusrat shodliklari bilan g'amni ko'tardi.  
O'zi ham xursandlik va shodlikdan,  
Ko'ngil lavhiga ta'rixni shunday dedi:  
"Ubaydiy-u shaharga Haq karam qildi"

So'fiyon Xalifaning mag'lubiyatga uchrab o'ldirilgani xabari Hirotga yetib kelgach, shahar noibi Xizir Chalabiy shahar mudofaasiga kirishadi. Ammo So'fiyon Xalifa va uning odamlari tomonidan xalqqa ko'rsatilgan jabr-zulm sabab xalq Ubaydullaxonga xayrixohlik bildirib, uni Hirotni egallashga da'vat etadi. Bir necha oy davom etgan qamaldan so'ng Hirot egallanib, Xizir Chalabiy va boshqa qizilboshlar o'ldiriladi.

Ubaydullaxon o'zbek askarlariga xalqni talash va o'ldirishni taqiqlab, Hirotni obodonlashtirish ishlariga kirishadi. Ubaydullaxon 14 oy Hirotni nazorat qiladi. Qit'ada ta'rix yashiringan bo'lib "عبیدی و بلاد حق کرم کرد" jumlasidagi raqam qiymati Hirotni Ubaydullaxon tomonidan egallangan sanasini ko'rsatadi.

Ubaydullaxonning kulliyot tarkibidagi uchinchi forscha qit'asi Bobur Mirzoga bag'ishlangan. Bu ikki tarixiy shaxslarning o'zbek xalqi miliy merosida o'rni beqiyos bo'lsa-da tarixan ular bir-birlarini raqib, dushman hisoblashardi. Binobarin ushbu qit'a ayni adovatning bir mahsuli o'laroq yozilgandir. Qit'ada Ubaydullaxon Bobur Mirzoni sog'archi deb ta'riflab, uni yer bilan yakson bo'lishi kerakligini aytadi:

بابرت پادشاه دنی شد  
پیش آن پادشاه خواهی رفت  
ای سیه روزگار ساغرچی  
بر زمین سیاه خواهی رفت

Mazmuni:

Bobur razil podshoh bo'ldi,  
U podshohning oldidan ketmoq kerak.  
Ey turmushi qora, sog'archi,  
Sen qora turpoqqa qorishmog'ing kerak.

Tazkirachi Hasanxoja Nisoriy Boburning o'n yillik harbiy harakatlari va ularning oxir - oqibatda natijasiz bo'lib chiqqani xususida "Muzakkiri ahbob" tazkirasida yozarkan taqdir Ubaydullaxonga kulib boqqanini aytadi: "Shamshir zarbi bilan Movarounnahr mamlakatiga ega bo'lib, uni saqlab qolishda xo'p sa'y - harakatlar va jonini ayamadan jahdu - jadallar ko'rsatdi. Mardona to'qnashuvlar qildi, ammo taqdir o'qiga tadbir qalqoni dosh bera olmadi..." [1:23]

Kulliyot tarkibidagi qolgan to'rtta qit'a to'g'rilik, adolat, ta'ma va dunyo ishlarida sobitqadam bo'lishlik to'g'risida bo'lib, sulton adolatni o'lik jonlarni tiriltirishini, u hech qachon ortiqcha bo'lmasligini aytadi. Uning aksi bo'lgan zulmni qattiq qoralaydi. Xudodan yaxshilik istagan inson boshqalarga yaxshilikdan boshqasini ravo ko'rmasligi lozim ekanligini ta'kidlaydi. To'g'rilik doim foyda keltirib, ta'ma el ichida xor qilishini, dunyo ishlarida qaror bo'lmagani holda inson o'z ishlarida sobitqadam bo'lmog'i zarurligini ta'kidlaydi:

راستی پیشه کن اگر خواهی  
که تورا راستی بکار آید  
دست از راستی مکش زنهار  
همه جا راستی بکار آید

Mazmuni:

To'g'rilini o'zingga kasb qilginki,  
To'g'rilik sening bir koringga yaraydi.  
Tog'rilikdan zinhor yuz ogirmaki,  
Har yerda to'g'rilik foyda keltiradi.

هرگز نگشت چشم طمع سیر از درم  
پر خاک باد دیده او تا دم فرع  
خواهی که تو همیشه به بندی زبان خلق  
در پیش هیچکس مکشا دامن طمع

Mazmuni:

Hargiz ta'ma ko'zi diram bilan to'lmadi,  
To so'nggi nafasga qadar uning bunday ko'zi turpoqqa to'lsin.  
Odamlar tilida doim maqtalib qolishni istasang,  
Hech kimning oldida ta'ma etagini yozma.

خصلت بد ز شاهان ظلم  
ظلم کردن بکس هوس نکنی  
عدل تو مرده را کند زنده  
تا تورا زند کیست بس نکنی  
نیکی ار چشم از خدا داری  
غیر نیکی بهیچکس نکنی

Mazmuni:

Shohlardan eng yomon xislat zulmdir,  
Biron kimga zulm qilmoqni havas qila ko'rma.  
Sening adling o'likni tirgizar,  
To senga hech kim bu adlingni bas qilma demas.  
Agar Xudodan yaxshilik istasang,  
Hech kimga yaxshilikdan boshqasini qilma.

ای فلک قدر در امور جهان  
بی ثباتی گذار و ثابت باش  
گر فرود آید آسمان بسرت  
چون زمین پایدار و ثابت باش

Mazmuni:

Ey qadri osmon, dunyo ishlarida sabotsizlik qilmay sobit tur  
Agar osmon boshingga qulasa, yer kabi barqaror bo'lg'in, poydor tur [5:78]

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Ubaydullaxonning forsiy ijodida qit'a janri shoirning ijtimoiy hayotga munosabati va axloqiy-tarbiyaviy qarashlarini aks ettiradi. Ijodkor qit'alarida so'z qo'llash bilan bog'liq badiiy mahoratini namoyish etib, turli she'riy san'atlardan o'z o'rnida unumli foydalana olishligi ayni ijod mahsullarining yana-da ta'sirlik chiqishini ta'minlagan jihatdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Hasanxo'ja Nisoriy. Muzakkiri ahbob. –Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi NMIU, 1979(a). – 343 b.
2. Zayniddin Vosifiy. Badoye ul-vaqoye. – Toshkent:G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 1996(b). – 215 b.
3. M.Abdullayev. Ubaydiy hayoti va adabiy faoliyati. Nomzodlik dissertatsiyasi. – Toshkent:2009(d). – 157 b.
4. Abdullajon Usmonov. Shayboniy Ubaydullaxonning Xurosonga yurishlari. Ikki saltanat va madaniyat to'qnashuvi. <https://oyina.uz/uz/article/3601>
5. Ubaydiy devoni. O'zFA ShI qo'lyozmasi. Inv. № 8931(f).